



## Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

# 2020-yil yanvar oyida QURILISH ISHLARI

### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -  
**298,6 mlrd. so`m**

Yirik qurilish tashkilotlari  
ulushi – **12,0 %**

Kichik korxonalar va  
mikrofirkmalar ulushi  
– **52,9 %**

Norasmiy sektor  
ulushi – **35,1 %**

Toshkent viloyatida qurilish faoliyati investitsiya kiritilishining jozibador yo`nalishlaridan biri va iqtisodiyotning ahamiyatli tarmog`i hisoblanadi. Joriy yilning yanvar oyida Toshkent viloyatida jami **298,6** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`shish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan **101,6 %** ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **35,9** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **12,0 %** ni, hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **93,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirkmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **52,9 %** ni yoki **157,8** mlrd. so`m to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan **100,4 %** ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **35,1 %** yoki **104,9** mlrd. so`m to`g`ri keldi hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **106,6 %** ni tashkil etdi.



### Yirik qurilish tashkilotlari

- hajmi - 35,9 mlrd. so`m
- o`shish sur`ati-93,4 %
- ulushi-12,0 %



### Kichik korxonalar va mikrofirkmalar


- hajmi-157,8 mlrd. so`m
- o`shish sur`ati-100,4 %
- ulushi-52,9 %



### Norasmiy sektor

- hajmi-104,9 mlrd. so`m
- o`shish sur`ati-106,6 %
- ulushi-35,1 %

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari, mlrd. so`m



Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida **71,3 %** ni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **2,0 %** punktga kamaydi.




Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari ulushi jami qurilish ishlari hajmida **11,8 %** ni tashkil etib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **2,1 %** punktga ko`paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari ulushi jami qurilish ishlari hajmida **16,9 %** to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan **0,1 %** punktga kamaydi.



## Yanvar oyida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da



- Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari





## 2020-yil yanvar oyida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi **12,2 %** ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **3,7** punktga kamaydi. Bunda kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi **38,6 %** ni (1,2 punktga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi **49,2 %** ni (**2,5** punktga ko'paydi) tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi, umumiy hajmga nisbatan **28,5 %** ni (**15,1** punktga ko'paydi) tashkil etdi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **71,5 %** ni (**15,1** punktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **100,0 %** ni tashkil etdi.

## Xududlar kesimida qurilish ishlari hajmi

(2020-yil yanvar oyida)

	Jami		
	Bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	2019-yil yanvar oyiga nisbatan % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi % da
<b>Toshkent viloyati</b>	<b>298,6</b>	<b>101,6</b>	<b>100,0</b>
Nurafshon sh.	12,1	106,6	4,1
Olmaliq sh.	13,8	106,4	4,6
Angren sh.	12,5	104,2	4,2
Bekobod sh.	12,5	99,9	4,2
Ohangaron sh.	10,3	107,6	3,4
Chirchiq sh.	14,6	102,6	4,9
Yangiyo'l sh.	4,7	99,7	1,6
tumanlar:			
<b>Oqqo'rg'on</b>	<b>9,3</b>	<b>100,6</b>	<b>3,1</b>
<b>Ohangaron</b>	<b>8,4</b>	<b>99,9</b>	<b>2,8</b>
<b>Bekobod</b>	<b>8,5</b>	<b>100,3</b>	<b>2,9</b>
<b>Bo'stonliq</b>	<b>16,1</b>	<b>103,0</b>	<b>5,4</b>
<b>Bo'ka</b>	<b>6,5</b>	<b>96,1</b>	<b>2,2</b>
<b>Quyichirchiq</b>	<b>6,8</b>	<b>101,0</b>	<b>2,3</b>
<b>Zangiota</b>	<b>33,2</b>	<b>102,5</b>	<b>11,1</b>
<b>Yuqori Chirchiq</b>	<b>19,7</b>	<b>101,2</b>	<b>6,6</b>
<b>Qibray</b>	<b>25,9</b>	<b>99,8</b>	<b>8,6</b>
<b>Parkent</b>	<b>17,7</b>	<b>100,8</b>	<b>5,9</b>
<b>Piskent</b>	<b>7,4</b>	<b>100,5</b>	<b>2,5</b>
<b>O'rta Chirchiq</b>	<b>16,2</b>	<b>98,6</b>	<b>5,4</b>
<b>Chinoz</b>	<b>8,3</b>	<b>95,2</b>	<b>2,8</b>
<b>Yangiyo'l</b>	<b>8,4</b>	<b>97,3</b>	<b>2,8</b>
<b>Toshkent</b>	<b>25,7</b>	<b>103,6</b>	<b>8,6</b>

## 2020-yil yanvar oyida qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar tarkibi




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **157,8** mlrd. so'mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **52,9 %**) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **100,4 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining **35,1 %** ni yoki **104,9** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **106,6 %** ni tashkil etdi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **35,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi **12,0 %** ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **93,4 %** ni tashkil etdi.

## Yanvar oyida qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'atlari, % da



Qurilish ishlari hajmida hududlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Zangiota tumani, yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar oyida **33,2** mlrd. so'm yoki o'tgan yilga nisbatan **102,5** % ga bajarildi.







Qurilish ishlari hajmining eng past darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Yangiyo'l shahri (4,7 mlrd. so'm yoki 99,7 %), Bo'ka tumani (6,5 mlrd. so'm yoki 96,1 %) va Quyri Chirchiq tumani (6,8 mlrd. so'm yoki 101,0 %) qurilish-pudrat ishlari amalga oshirildi;





**2020-yil yanvar oyida qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da**



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Zangiota tumanida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 11,1 % ni, Qibray tumanida 8,6 % ni va Toshkent tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 8,6 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Yangiyo'l shahrida bu ko`rsatkich eng past 1,6 % ni tashkil etdi. Bo'ka tumani 2,2 % ni va Quyi Chirchiq tumanda 2,3 % dan tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



**Toshkent viloyati statistika boshqarmasi**  
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**  
**Nashr uchun mas'ul: B. Djavliyev**  
*Aloqa telefoni: (71) 230-86-71*